

BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI SAQLASH MUAMMOLARI

*Abrorjonova X.
O'lmasova M.
Sharifmurodov K*

Anotatsiya: Ekologik muammolarning kundan-kunga ko'payib, kengayib borayotgan hozirgi kunda o'simlik va hayvonot dunyosini saqlab qolish, biologik xilma-xilligni monitoring qilib, barqaror tutib turish muhim sanaladi. Ushbu maqolada biologik xilma-xilligning mohiyati, asosiy vazifalari, hozirgi kundagi holati va saqlab qolish muammolari haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'rganilgan masalalar tahlil qilinib, tegishli xulasalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: biologik, o'simlik, hayvon, genetik, bakteriya, ekologik, o'rmon, cho'l, zamburug', reлект.

Аннотация: Сегодня, когда экологические проблемы растут и расширяются с каждым днем, важно сохранять флору и фауну, следить за биологическим разнообразием и поддерживать его стабильность. В данной статье представлена информация о сущности, основных функциях, современном состоянии и проблемах сохранения биологического разнообразия. Проанализированы изученные вопросы и представлены соответствующие выводы.

Ключевые слова: биологический, растительный, животный, генетический, бактериальный, экологический, лес, пустыня, гриб, рефлекс.

Annotation: Today, when ecological problems are increasing and expanding day by day, it is important to preserve flora and fauna, monitor biological diversity and keep it stable. This article provides information on the essence, main functions, current status and preservation problems of biological diversity. The studied issues are analyzed and relevant conclusions are presented.

Key words: biological, plant, animal, genetic, bacteria, ecological, forest, desert, fungus, reлект.

Kirish. Mamlakat va uning xalqi rivojlanishi uchun Bioxilmaxillikning ahamiyatini to'la tushunib yetish uchun, eng avvalo, mazkur tushunchaning mazmun va mohiyatini bilish kerak. "Bioxilmaxillik nima?", degan savolga ko'pchilik bu "tabiat" yoki "yovvoyi hayvonlar" deb javob beradi. Ammo, Bioxilmaxillik ancha keng tushuncha bo'lib, u hayotning barcha turlarini va sayyoramizda mavjud barcha tabiiy tizimlarni o'z ichiga oladi.

Bioxilmaxillik turg'un tushuncha emas. U tabiat barcha biologik qismlarining o'zaro bog'liqligi va bir-birini taqozo etishini tan oladi. Ko'pincha mazkur tushunchaning uch darajasi farqlanadi: turlarning biologik rang-barangligi – barcha o'simliklar va hayvonlarning, shu jumladan turli bakteriyalar va mikroorganizmlarning rang-barangligi; genetik rang-baranglik – turlardagi genetik materialning rang-barangligi va ularning o'rtasidagi Bioxilmaxillik; ekologik tizimlarning rang-barangligi – ekologik tizimlarning boyligi (masalan, tog' o'rmonlari, cho'llar yoki savannalar, sahrolar va dengizlar va h.k.). Bu uch daraja jamuljam holda Bioxilmaxillikni tashkil etadi. Shu sababli mazkur darajalarning har birini asrash umuman Bioxilmaxillikni asrash uchun muhimdir.

Metodlar. O'simlik turkum va turlarini aniqlashda Определитель растений Средней Азии asaridan foydalanildi. Turlarning ilmiy nomlari POWO (Plants of the World Online, 2023) xalqaro elektron ma'lumotlar bazasi asosida keltirildi. Ma'lumotlarning statistik tahlillari Mikrosoft Excel 2014 dasturlari yordamida amalga oshirildi.

Natijalar. O'zbekistonning umumiy biologik xilma-xilligi 27000 dan ortiq turni tashkil etadi. Mamlakatimizning o'simlik dunyosida yuksak yoki oliy o'simlik turlari alohida ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasi hududida 4500 ga yaqin yuksak o'simlik turlari va 2000 dan ortiq zamburug' turlari uchraydi. Ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj kamyob va relik turlar ham mavjud bo'lib, ularning soni 300 dan oshadi. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga 314 turdagi o'simlik turi kiritilgan.

Har yili respublikada yovvoyi holda o'sadigan dorivor, oziq-ovqat va texnik o'simliklarning 65 turiga yaqini yetishtiriladi. Eng ko'p miqdordagi hosil quyidagi turlarga to'g'ri keladi: qizilmiya, kovrak, kovul, qo'ziqorin va na'matak.

O'zbekiston faunasida umurtqali hayvonlarning 706 turi (sut emizuvchilar – 107, qushlar – 460, sudralib yuruvchilar – 64, amfibiyalar – 3 va baliqlar – 76) mavjud, umurtqasiz hayvon turlari esa 15 mingdan ortiq. So'nggi o'n yil davomida tabiatdan foydalanishning kuchayishi oqibatida, O'zbekistondagi ko'plab hayvon turlari kuchli antropogen ta'sir ostida qolib, ularning yashash joylari va soni qisqardi, ba'zilari esa butunlay yo'q bo'lib ketdi.

Muhofazaga muhtoj va yo'qolib borayotgan hayvon turlaridan O'zbekistonning Qizil kitobiga kenja turlar bilan birgalikda sutemizuvchilarning 30, qushlarning 52 turi, sudralib yuruvchilarning 21 turi, baliqlarning 18 turi, halqasimon chuvalchaglarning 3 turi, mollyuskalarning 15 turi va bo'g'imoyoqlilarning 67 turi kiritilgan.

Davlat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining bioxilma-xillik sohasidagi faoliyati asosan tabiiy majmualar, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish va nazorat

qilish, sohaga doir chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish hamda amalga oshirish, bioxilma-xillikni o'rganish va muhofaza qilish sohasidagi xalqaro aloqalarni rivojlantirish hamda boshqalardan iboratdir.

Tekislik hududlari, sug'orish uchun o'zlashtirilgan daryo qayirlari va qayir yuqorisida joylashgan yerlar, suvli va suv oldi ekotizimlari hamda Orol dengizi mintaqasi eng ko'p o'zgarishlarga duchor bo'lgan. Hozirgi kunda respublika 80% soz tuproqli cho'llar, 95% daryo qayirlari, 20% - qumli cho'llar (Farg'ona vordiyisida - 90%) va tog'li hududlarning 40% o'zlashtirilgan. Daryo qayirlari va qayir yuqorisida joylashgan hududlarga tabiiy o'simliklarni keng ko'lamda o'zlashtirish va yerlarning sug'orishga olinganligi tufayli ziyon ko'rdilar. Yana juda katta yo'qotishlar va tanazzullar sho'rlanish, botqoqlanish va agro va zaharli ximikatlar bilan ifloslanish, qishloq xo'jalik ishlarini olib borishda noto'g'ri amaliyot qo'llanilishi natijasida kelib chiqqan.

Suvli va yarim suvli ekotizimlar suvning sho'rli ortishi va agroximikatlar bilan ifloslanishga juda sezgirdir. Bundan tashqari, irrigatsiya tizimining rivojlanishidan kelib chiqqan tabiiy-gidrologik davrlar o'zgarishining keng rivojlanishi, turlar kamayishi va areallarning qisqarishi yoki ularning butunlay yo'q bo'lishi bilan davom etishi, ekologik sharoitning jiddiy o'zgarishiga, shuningdek, ko'pgina ekzotik baliq turlarining iqlimlashishi ekologik muvozanatning buzilishiga olib keldi. Deyarli barcha Markaziy Osiyo hududi uchun gidrologik manba bo'lib xizmat qiluvchi Orol dengizi mintaqasi sug'orish dehqonchiligi rivojlantirilishi tufayli hammadan ham ko'p talofot ko'rdi. Suvlarning sug'orish maqsadlarida samarasiz foydalanilishi Orol dengiziga quyiladigan suv oqimining tez va yuqori darajada qisqarishiga va bu esa dengiz suv sathining keskin pasayishiga olib keldi. Asosiy natija bo'lib suv sho'rligining bir necha marotaba oshishi va buning oqibatida ko'pgina jonivorlarning nobud bo'lishiga olib keldi.

Xulosa. Turli ekotizimlarning o'simlik va hayvonot bioxilma-xilligi jiddiy farqlanadi hamda u yoki bu tabiiy mintaqaning darajasiga bog'liq bo'ladi. Bir qator umurtqali hayvonlarning yo'qolish jarayoni ular yashash joylarining tanazzuli va to'g'ridan-to'g'ri yo'q qilinishi natijasida, ayniqsa yirik sutemizuvchilarda ko'rinadi. Hayvonlar tarqalgan joylar va sonining qisqarishi eng avvalo tuyoqli va yirtqichlar vakillariga ta'sir qiladi yirtqichlarning yo'qolib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobonazarovich Y. B. TABIIY MUHOFAZA ETILADIGAN HUDUDLARDA EKOTURIZIMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI (KITOB GEOLOGIK

- QO 'RIQXONASI MISOLIDA) //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 11. – С. 315-324.
2. Hojiyeva A., Xurramov O. Ziziphora tenuior o'simligining dorivorlik xususiyatlari //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 8-10.
 3. O'zbekiston florası 3-tom.1961-yil. 717-720-bet.
 4. Xurramov O. G. Islamov BS SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA GLYCYRRHIZA GLABRA L //NING BA'ZI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. – Т. 257.
 5. Xurramov O. G., Islamov B. S. SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA GLYCYRRHIZA GLABRA L. NING BA'ZI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 2. – №. 1
 6. Введенский А.И., Ковалевская С.С. Род Eremurus M. Vieb. // Определитель растений Средний Азии. – Ташкент: Фан, 1971. Т. II. – С.14-27.
 7. Хо'jamov Sh, A. (2024, avgust). TABIIY BIOSENOZDA O'SUVCHI DARAXTCHIL O'SIMLIKLAR NEMATODAFUNASINING O'RGANILISHI. FANlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqot konferensiyasida (22-jild, 2-son, 11-13-betlar).